
DEHQON BOZORIDA KUNLIK YARMARKA TASHKIL ETILDI

Karantin davrida Qo'shtepa tumanidagi dehqon bozorida oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxining asossiz oshib ketishiga yo'l qo'yilmaslik bo'yicha zarur choratadbirlar amalga oshirilmoqda. Buning uchun tuman hokimligi, tuman prokuraturasi, IIB, Davlat soliq inspeksiyasi xodimlaridan iborat ishchi guruhlar dehqon bozoridagi narxnavoni doimiy nazorat qilmoqda.

Shuningdek, bozor ma'muriyati tomonidan kunlik yarmarka tashkil etilgan bo'lib, fuqarolarimiz oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilishlari mumkin.

Qo'shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati

2020-03-30 13:14:05